




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
O'LIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JABBOROVA ONAXON MANNAPOVNA

## TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun*

*O'quv qo'llanma*



«BOOK TRADE 2022»  
TOSHKENT – 2022

UO'K: 91:31(075.10)

KBK: 65.04ya75

## MUNDARIJA

**Jabborova Onaxon Mannapovna**

**Tarbiyaviy ishlar metodikasi.** O'quv qo'llanma. – Toshkent. 2022.  
– 104 b.

### 1-MODUL. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIVAVIY ISHLAR METODIKASINING NAZARIY MASALALARI

1-mavzu: "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining maqsad va vazifalari .....	4
2-mavzu: Tarbiyaviy ishlar milliy mahabatlari .....	13
3-mavzu: Tarbiyaviy ishlar umuminsoniy omillari .....	22
4-mavzu: Tarbiyaviy ishlar tashkil etishining nazariy asoslari .....	29

### 2-MODUL. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIVAVIY ISHLAR METODOLOGIYASI

5-mavzu: Tarbiyaviy ishlar metodlari .....	38
6-mavzu: Tarbiyaviy ishlar shakllari .....	47
7-mavzu: Tarbiyaviy ishlar vositalari .....	53
8-mavzu: Tarbiyaviy ishlar texnologiyalari .....	60
9-mavzu: Tarbiyaviy ishlar xorijiy tajribalari .....	66

### 3-MODUL. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIVAVIY ISHLAR AMALIYOTI

10-mavzu: Tarbiyaviy ishlar monitoringi .....	73
11-mavzu: Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o'rganib borish xususiyatlari .....	79
12-mavzu: Tarbiyaviy ishlar amaliyotida jamoatchilikning ishtiroki .....	85
13-mavzu: Tarbiyaviy ishlar amaliyoti samaradorligi .....	91
Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar .....	98
Glossariy .....	100
Tavsiya etiladigan umumiy adabiyotlar .....	103

Mazkur o'quv qo'llanma boshlang'ich ta'limda Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bo'yicha ilk bor tayyorlangan bo'lib, unda tarbiyaviy ishlar metodikasining nazariy masalalari, metodologiyasi va amaliyoti omillari tahlil etilgan. O'quv qo'llanmani tayyorlashda milliy pedagogik tajriba va xorijiy pedagogik an'analar uyg'un hisobga olingan. Mazkur o'quv qo'llanmaning asosini o'qitishning kredit-modul tizimi qoidalari va talablari tashkil etadi. Undan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar va amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishi tavsiya etiladi.

**Mas'ul muharrir:**

**Shukurullo Qo'ldoshevich Mardonov** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**Tagirizchilar:**

**Fotima Uralovna Jumanova** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.  
**Nurati Xolboyevich Irbutayev** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

*O'quv qo'llanma Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-8821-6-4

## I-MODUL. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIVAVIY ISHLAR METODIKASINING NAZARIY MASALALARI

### I-MAVZU: "TARBIVAVIY ISHLAR METODIKASI" FANINING

#### MAQSAD VA VAZIFALARI

##### Reja:

1. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" tushunchasi va uning mazmuni
2. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining asosiy maqsadlari
3. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining vazifalari

**Tayanch tushunchalar:** boshlang'ich ta'lim, tarbiya, metodika, maqsad, vazifa, bilim, ko'nikma, malaka.

#### "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" tushunchasi va uning mazmuni.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida *tarbiyaviy ishlar* ta'lim jarayonining uzviy qismini tashkil etadi. Unga ko'ra, ta'lim vositasida amalga oshiriladigan shaxsga bilim, ko'nikma va malaka berish ta'lim, tarbiya hamda o'qitish jarayonlariga tayaniladi. Shu jihatdan tarbiyaviy ishlar metodikasi bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalariga ega bo'lishi zaruriyat hisoblanadi.

Pedagog olimlarning nazariy qarashlari va Pedagogika fani tajribasiga ko'ra, tarbiya – bu avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan hamda turli muassasalar faoliyati vositasida amalga oshiriladigan jarayondir.<sup>1</sup> Shu jihatdan tarbiya jarayoni tarbiyaviy ishlar vositasida amalga oshiriladi. Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlar *tushunchasining* mazmuni shundan iboratki, bu 7-11 yoshli o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashga yo'naltirilgan *tadbirlar* vositasida amalga oshiriladigan faoliyattir. Bunday tarbiyaviy tadbirlarning asosiy turlarini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) o'quvchilar bilan tarbiyaviy xususiyatga ega o'yinlar, bayramlar, turli tadbirlar va harakatlarni amalga oshirish;
- 2) subbat, o'quvchi shaxsini o'rganib borish, o'quvchi muammolarini

<sup>1</sup> Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent, 2010. 526-bet.

hal etish bilan unga tarbiyaviy yordam berish;

3) teatrlashtirilgan sahna asarlari qo'yish, muzeylar, qadimiy shaharlar va diqqatga sazovor madaniyat maskanlariga o'quvchilar bilan birgalikda sayohatlar uyushtirish;

4) o'quvchi shaxsining tarbiyalanganlik darajasidan manfaatdorlar – ota-onalar, ularning o'rini bosuvchi shaxslar, mahalla faollari, jamoatchilik vakillari va tashkilotlarning belgilangan mutaxassislari ishtirokida o'quvchilarni tarbiyalashga yo'naltirilgan anjumanlar, simpoziumlar, kitobxonlik kunlari, ijodiy tanlovlar va sport musobaqalari o'tkazish.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlar metodikasining o'ziga xos mazmuni amalga oshiriladigan *tarbiya zaruriyati* bilan ham belgilanadi. Chunki boshlang'ich ta'limda o'quvchilar tarbiya olamiga olib kiritiladi va ularning oilada olgan tarbiya ko'nikmalari koreksiyalanadi hamda rivojlaniriladi. Shu sababli ta'limning mazkur bosqichida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarga tarbiya zaruriyati nuqrai nazardan yondashish taqozo etiladi. Bunday tarbiya zaruriyatining eng muhimlari quyidagilardan iborat:

1. *Pedagogik zaruriyat.* Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari pedagogik talablar, metodlar, qonuniyatlardan va texnologiyalarga asoslangan tadbirlar vositasida tarbiyalanishi kerak. Bunda pedagogik zaruriyatning mazmuni shundan iboratki, boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni pedagogik asoslarga tayanishi shart. Shu sababli pedagogik zaruriyat asoslarini quyidagilarga tayanish tashkil etadi:

– boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasini davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va o'quv rejalari asosida amalga oshirish;

– boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda pedagogik tadqiqotlarda bayon qilingan nazariy, metodologik va amaliy tavsiyalarga asoslanish;

– boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda zamonaviy xalqaro pedagogik tajribalarga tayanish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashga yo'naltirilgan tadbirlarni pedagogik zaruriyat asosida belgilab olish imkonini beradi.

2. *Psixologik zaruriyat.* Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda psixologik qonuniyatlardan, metodlardan va texnologiyalarga

asoslanish taqozo etiladi hamda tarbiyaviy tadbirlar ana shu asosida belgilanishi kerak bo'ladi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhiy holati, darajasi va vaziyatlari;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhiy kechimmalari, idroklari va munosabatlari;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga ishonchi, mustaqil xatti-harakati va rivojlanib borish xususiyatlariga egaigi.

Mazkur jihatlarga e'tibor berish va amal qilish boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida psixologik zaruriyatlarga taylanish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Shuni ta'kidlash joizki, psixologik zaruriyatlar aynan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

3. *Jitimoiy zaruriyat.* Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida jitimoiy zaruriyatlar majmuga asoslanish kerak bo'ladi. Chunki jitimoiy zaruriyatlar tarbiyaviy tadbirlarning fundamenti sifatida mazkur jarayonda muhim ahamiyatga ega. Bunday jitimoiy zaruriyatning asosiy qiyidagilardan iborat:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini jitimoiy lashtirish, ularning jitimoiy ongi, axloqi va dunyog'arashini dastlabki bosqichda shakllantirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini jitimoiy faoliyat va jitimoiy munosabatlarga tayyorlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining jitimoiy ko'nikma va malakalarini tadrifiy rivojlantirib borish.

Bularga amal qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashga yo'naltirilgan tadbirlarni aniq belgilab olish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar va tarbiyaviy ishlar metodikasi tushunchasida pedagogik, psixologik va jitimoiy zaruriyatlarni hisobga olish birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalalar pedagogik ilmiy tadqiqotlar xulosalari hamda pedagogik amaliy tajribalar asosida idrok etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarining turlari ko'p. Ayni paytda mazkur tarbiyaviy tadbirlar turlaridan yagona mantiqlik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosida foydalanish asosiy vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich

ta'limda tarbiyaviy ishlar tushunchasi deganda ana shunday tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va ular vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash tushuniladi.

Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayonida quyidagi ikki tushuncha farqlanishi kerak:

1) tarbiyaviy ishlar — bu boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayonning umumiy majmui;

2) tarbiyaviy tadbirlar — bu boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan amalga oshiriladigan tarbiya jarayonidagi usullar, yondashuvlar va tajribalar majmui.

Shu jihatdan tarbiyaviy ishlar umumiy xususiyatga ega bo'ladi, tarbiyaviy tadbirlar esa aniq xususiyatlarga egaigi bilan farqlanib turadi. Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlar metodikasi tushunchasida mazkur tushunchalarning farqli tomonlari idrok etilishi tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlar mazmunini tarbiyaga oid turli tadbirlarning imkoniyatlariga tayangan holda o'quvchilarni jamiyat ehtiyojlari va hozirgi zamon rivojlanish jarayoni talablari asosida tarbiyalash samaradorligiga erishish tashkil qiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish bilan tarbiyaviy ishlar mazmunini idrok etish mumkin:

1) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarini tashkil etish nazariyasi, metodologiyasi va amaliyotini bilish;

2) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarini o'z vaqtida, talab darajasida va tarbiyaviy qoidalar asosida tashkil etish hamda amalga oshirish metodlari, vositalari, texnologiyalari va mexanizmlarini bilish;

3) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarini o'quvchilarning imkoniyatlari va xususiyatlariga mos ravishda amalga oshirish, ular vositasida qo'yilgan maqsad va vazifaga erishishni bilish;

4) boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarining samaradorligini baholashni bilish.

Bularдан xabardorlik boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlar mazmunini anglab olishga olib keladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar mazmunini to'liq o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalarida faoliyat yaratayotgan Tutorslar bilan hamkorlik qilish kutilgan samarani